

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova	
Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari.....	212
O.I.Yadgarova	
Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili	216
O.M.Xalimova, A.A.Xusanov	
Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sabablari	221
D.X.Turdiboev	
O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ahamiyatlilik darajasi.....	224
Sh.D.Ismoilov	
O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini shakllantirishning tamoyillari	227
S.A.Yaxyayeva	
Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari.....	231
B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati	236
G'.B.Samatov.S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash.....	248
X.R.Saidova	
Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari.....	254
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari	259
Sh.H.Yusupaliyeva	
Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq kompetensiyasini samarali qo'llash usullari.....	263
X.R.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	266
X.M.Madazimov	
Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi	274
B.T.Yunusaliyev	
Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahamiyati.	277
K.I.Qosimov	
Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi	280
M.A.Xusanova, M.A.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	287
M.O.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	290
N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva	
Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari.....	293
A.M.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	297
Z.V.Alimova, U.A.Soxibova	
Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili.....	300
I.I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	305
B.A.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	310
Z.H.Usmonova	
Rey Bredberning "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari	315
A.M.Mamarasulov	
Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi.....	319
L.X.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	322

ABDULLA QODIRIY – XX ASR GENIYSI

АБДУЛЛА КАДИРИ – ГЕНИЙ XX ВЕКА

ABDULLAH KADIRI - THE GENIUS OF THE XX CENTURY

Qosimov Kozimjon Isoqovich¹¹Qosimov Kozimjon Isoqovich

– O‘zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqola buyuk o‘zbek mutafakkiri va adibi Abdulla Qodiriyning ijodkor shaxs, iste’dodli ijodkor va XX asr geniysi sifatidagi noyob qirralarini ochishga hamda geniy sifatida shakllanishining tabiiy-irsiy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy-tarixiy shart-sharoitlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, “geniy” fenomenining tahlili ham maqolaning markaziy qismini tashkil etadi.

Аннотация

В статье исследуется личность и творчества великого узбекского мыслителя и писателя Абдуллы Кадири как гений XX века; так же делается попытка обосновать естественно-генетическое, общественно-культурные, историко-политические предпосылки формирования личности мыслителя как гений. Также анализ феномена «гениальность» является центральной частью статьи.

Abstract

The article explores the personality and creativity of the great Uzbek thinker and writer Abdull Kadir as a genius of the twentieth century; an attempt is also made to substantiate the natural genetic, socio-cultural, historical and political prerequisites for the formation of the thinker's personality as a genius. Also, the analysis of the phenomenon of "genius" is the central part of the article.

Kalit so‘zlar: Shaxs, ijodkor shaxs, talant, geniy, tabiiy-irsiy omillar, ijtimoiy-siyosiy omillar, madaniy omillar, muhabbat, elitar qatlam, shaxs erkinligi, ijodkor davrlar, milliy mustaqillik, milliy g‘oya, globallashuv, milliy o‘zlikni anglash.

Ключевые слова: личность, творческая личность, талант, гений, естественно-генетические факторы, общественно-политические, культурные предпосылки, любовь, элитарный слой, свобода личности, творческие периоды, национальное самосознание, глобализация, национальная идея.

Key words: personality, creative person, talent, genius, natural genetic factors, socio-political, cultural background, love, elite layer, individual freedom, creative periods, national self-consciousness, globalization, national idea.

KIRISH

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining globallashuv nomini olgan hozirgi bosqichida rivojlangan G‘arb mamlakatlarning ilm-fan, madaniyat, texnika, demokratiya sohasida erishgan yutuqlari mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor berayotgan O‘zbekiston singari mamlakatlar tomonidan zo‘r berib o‘rganayotgan sharoitda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘oya va mafkura asoslarini yaratishda buyuk adib va mutafakkir Abdulla Qodiriy hozirgi zamon geniysi sifatida o‘rganish dolzarb va muhimdir.

O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk adib, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o‘zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda” [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

So‘nggi yuz yil mobaynida Abdulla Qodiriy shaxsi, asarlarining ijtimoiy, badiiy-estetik mohiyati masalalari respublikamizning taniqli adabiyotshunos olimlari, faylasuflari, tarixchilari tomonidan o‘rganildi. Taniqli adabiyotshunoslar: Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Matyoqib Qo‘shjonov, Ibrohim G‘afurov, Sobir Mirvaliyev, Bahodir Karim, Azim Rahimov, Yo‘ldosh Solijonov, Omonulla Madayev singari o‘nlab tadqiqotchilarning ishlari salmoqli va mahsuldor bo‘lganligini ta’kidlash joizdir. Biroq Abdulla Qodiriyning shaxsi va ijodi barcha jadidlarning ilmiy-badiiy merosini biryozlama markscha metodologiya nuqtai nazaridan o‘rganish samarasiz bo‘libgina qolmay, xato va zararli deb hisoblandi.

Milliy mustaqillik yillaridagina Abdulla Qodiriy shaxsi va merosini ilmiy asosda tadqiq etish, unga munosib baho berish, ilg‘or g‘oya va badiiy-estetik g‘oyalarini ijodiy rivojlantirish imkoniyati vujudga keldi. Xuddi shu o‘rinda taniqli adabiyotshunos va qodiriyshunos Matyoqib Qo‘shjonovning quyidagi armon va istaklarini keltirish o‘rinlidir: “Qani edi biror mo‘jiza ro‘y bersayu qirqdan ko‘proq kitoblarimni saralab, totalitar mafkura unsurlaridan tozalab, qayta yozib, nashr qilsam, men his qilayotgan armonning miqdori ancha kam bo‘larmidi?” [2].

Abdulla Qodiriyning o'zbek romanchiligining asoschisi sifatidagi mahorati, buyuk va beqiyos iste'dod egasi ekanligi unga yaqin zamondosh bo'lgan buyuk iste'dod egalari: Sadridin Ayniy, Muxtor Avezov, Oybek, Izzat Sulton va hozirgi zamon adiblari: Odil Yoqubov, Abdulla Qahhor, Shukrullo, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Xoshimov, Xayriddin Sultonov singari adiblar tomonidan yuksak baholangan. Qizig'i shundaki, Abdulla Qodiriyning eng ashaddiy tanqidchilari bo'lgan, hukmron siyosat va mafkura zug'umi ostida buyuk ijodkorni "xalq dushmani" sifatida qoralaganlarning barchasi – M. Sheverdindan boshlab to hozirgi zamon adabiy tanqidchilarigacha Abdulla Qodiriyning noyob iste'dod egasi ekanligini e'tirof etganlari holda "qissadan hissa" chiqarishda uni "mayda burjua manfaatlarini himoya qilishda" aybladilar.

Abdulla Qodiriy jahon fani, madaniyati va adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan geniylar qismatini takrorladi. U millatparvar, taraqqiyparvar ijodkor, XX asrda ro'y bergan buyuk inqilobiy o'zgarishlar dunyoga keltirgan geniy sifatida avval inkor etildi, chunki u boshqa ijodkorlarga aslo o'xshamas edi. Bu haqda M. Qo'shjonov: "Abdulla Qodiriyning tarixiy qismati shunday bo'ldiki, qariyb ellik yil davomida uni biz jadidizmga ayblab keldik" [3],– deb yozdi.

G'arb tadqiqotchilari ta'kidlaganlaridek, "Haqiqiy geniy faqat talantli bo'lib tug'ilibgina qolmaydi. Uni faqat irsiyat, shaxsiy va ijtimoiy muhit va sharoitgina yaratmaydi. U o'zini o'zi yaratadi. U o'zining kim ekanligi haqida emas, balki qanday bo'lishi kerakligi haqida o'ylay boshlaydi. O'zini tushuna boshlashi bilan tug'ilganida berilgan qobiliyatidan qoniqish hosil qilmaydi. Uni ko'pincha bo'ysunishga, oqimga qarab oqishga, "barcha aqlli odamlar singari bo'lishga" majbur etuvchi atrof-muhit qoniqtirmaydi. U vaziyatning quli bo'lishni, moslashuvchi bo'lishni xohlamaydi"[4]. Bu misralar to'laligicha Abdulla Qodiriy shaxsiga ham tegishlidir.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida qiyoslash, analiz va sintez, ilmiy xolislik, kreativlik usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Jahonga mashhur olimlar ijodkor shaxs, iste'dod va geniy tushunchalarini bir-biridan farqlaydilar. Abdulla Qodiriy ijodining tadqiqotchilari hozirgacha uni ijodkor shaxs va buyuk iste'dod egasi sifatida tadqiq etdilar.

Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan yangicha dunyoqarash va ilmiy tadqiqot metodologiyasi Abdulla Qodiriy shaxsi va ijodiga keng falsafiy aspektda yondashish imkonini beradi. Shu o'rinda taniqli adabiyotshunos Umarali Normatovning Abdulla Qodiriyning XX asrda turkiy xalqlar, Sharq xalqlarining dunyoqarashi, badiiy-estetik ideallari rivojida o'rni va rolini belgilashda ilgari surgan quyidagi fikri e'tiborga loyiqdir: "O'tkan kunlar"da... xilma xil ijtimoiy, ma'naviy muammolar ko'tarilgan. Ular ichida eng muhimi, yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir. "O'tkan kunlar" romaniga qadar ham, asar yozilgan paytda va undan keyin ham hech kim o'tgan asrda millat taqdiri uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik tarixiy hodisalarni, o'lkaning mustaqillikdan mahrum bo'lib, mustamlakachilar oldida taslim bo'lishiga olib kelgan omillarni Qodiriychalik chuqur, xolis, ta'sirchan badiiy tahlil etgan asar yarata olgani yo'q! Mana, "O'tkan kunlar"da romanga xos tafakkurni ta'min etgan omil!

Qodiriyning ijodiy kashfiyoti shundaki, u "O'tkan kunlar" orqali yangi davr adabiyotining bir necha g'oyaviy-badiiy vazifalarini mohirona hal etib berdi. Asarda XIX asr rus va Yevropa realistik romanchiligiga xos barcha muhim xususiyatlarni topish mumkin. Eng muhimi, bu xususiyatlar har qanday taqlidlardan, zo'rma-zo'rliklardan xoli ravishda milliy zaminda milliy tafakkurga xos tarzda namoyon bo'lgan"[5].

Tadqiqotchilar geniyni talant (iste'dod)dan farqlaydigan quyidagi uch belgini ko'rsatadilar. Birinchidan, geniy ijodining originalligi va uning novatorligi; geniy ilgari tadqiq etilmagan sohalarda ijod qiladi, olamga mutlaqo qimmatli yangilikni taqdim etadi. Ikkinchidan, "geniy haqiqiy badiiy asarni yaratishda eng umumiy qobiliyatga, bitmas-tuganmas energiya (g'ayrat-shijoat)ga ega bo'lib, bu qobiliyatni muttasil rivojlantiradi"[6]. Uchinchidan, geniy har doim, hamisha geniydir, iste'dod esa davr, zamon talablariga javob beruvchidir. Talant to'liq takomilga erishishi uchun umumiy qobiliyatni talab etadiki, bu qobiliyat faqat geniyga xosdir [7].

Geniy ayni vaqtda ijodkor shaxs va buyuk iste'dod egasidir. Ijodkor shaxsning dunyoga kelishi, shubhasiz, o'zgargan yangi tarixiy davr ehtiyojlari bilan, iste'dodning rivojlanishi esa hozirgacha yaratilgan butun ilmiy, falsafiy, badiiy, diniy va h.o. merosni tanqidiy o'zlashtirish, umumlashtirish, nihoyat, ilm-fan, san'at rivojida yangi davrni boshlab berishdir. Abdulla Qodiriy shaxsi va iste'dodining kamol topishida XX asr boshlarida Rossiyada juda qisqa muddatda ro'y

bergan uch revolyutsiya, Qo'qon muhtoriyatining bolsheviklar tomonidan tor-mor etilishi, jadidchilik g'oyalari, Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik harakatlari – ana shularning hammasi juda muhim rol o'ynadi.

“Ozodlik jasoratni talab etadi – erkin fikrni hamma eshitadigan qilib aytish – jasur shaxslarning alohida imtiyozidir. Ko'p yozuvchi va olimlar xavf-xatar o'tib ketganidan so'ng haqiqatni kechikib aytadilar, endi esa hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Geniylar haqiqatni o'z vaqtida aytadilar va ular juda ozchilikni tashkil etadilar. Juda ko'p rassom, yozuvchi va olimlar illatlarni qattiq tanqid qilishni va ezgulikni rag'batlantirishni biladilar. Geniy ulardan farqli ravishda yaxshilik va yomonlikning tabiatini chuqur ochadi va ularning kelajakdagi oqibatlarini ko'rsatadi” [8].

Shu narsa shubhasizki, fan, san'atda erkin izlanish, qarashlar xilma xilligi va fikrlarning ochiq kurashi, barcha yangilik va originallikning davlat tomonidan ham moddiy, ham ma'naviy rag'batlantirilishi, ijodiy faoliyatga chuqur hurmat bilan qaralishi jamiyat o'z rivojlanishining muayyan bosqichida g'oyat muhim deb hisoblaydigan faoliyat sferasida buyuk iste'dodlarni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Irsiy qobiliyat, qulay sharoit, zarur madaniy-ma'rifiy muhit (ustozlar, maslakdoshlar va h.o.) aniq maqsadga qaratilgan ijodiy mehnat, qulay vaqt va yana boshqa ko'plab omillar uyg'unlashgan sharoitdagina geniylar dunyoga keladi. “Hech qanday idora, ilmiy jamoa, ijodiy uyushma, hatto ular orasida geniylar bo'lsa ham: “Yangi geniylar yaratilsin!” – degan farmoyishni bera olmaydi. Faqat jamiyat va tarixgina ana shunday alohida imtiyozga – geniylarni yaratish, qadrlash va e'zozlash imkoniyatiga egadir” [9].

Irsiy qobiliyat, ijtimoiy muhit, davr talablarining ayni bir vaqtda mutanosib bo'lishi – geniyning dunyoga kelishidagi noyob hodisadir. Taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning yozishicha, Abdulla Qodiriyning otasi “Qodirmuhammad bobo davrining g'oyatda jo'mard kishilaridan edi. O'smirlik va yigitlik chog'larida boshidan ko'p kechmishlarni o'tkazgandi. Toshkent beklarining eng atovli sarbozlaridan bo'lib yetishgandi. Beklar eng mushkul, uquv va idrok, dovyuraklik talab qiladigan ish-yumushlarni unga ishonishardi, o'tdan-suvdan har doim omon chiqadigan yigit edi. Favqulodda azamat odam bo'lganligiga yorqin bir misol: u Abdullani yetmish ikki yoshga kirgan chog'ida ko'rgandi” [10].

Qodirmuhammad bobosi haqida Habibulla Qodiriy: “Bobom badjahl, oilaga qattiqqo'l bo'lganlar. Lekin o'qish-ilmni qadrlaganlar. “O'zimni xatim yo'q-da, bo'lmasa hammangni barmog'imda o'ynatardim”, - deb o'z omiliklaridan o'kinganlar, bolalarining o'qishiga sira to'sqinlik qilmaganlar. U shunchalik zolim, mehnatga ayovsiz bo'lsa ham, bolalar maktabga boraman, saboq qilaman desa, ishdan ozod qilardi” [11].

A.Qodiriy otasi haqida: “Otam... 1923-yillari tug'ilib, alhol (hozir – 1922 yil) 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosi vaqti (1865 y.)da 42 yoshida bo'lib, Toshkandni ruslardan mudofaa qilg'an qahramonlarning biridir.

...Shundoq qilib, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab Rusiya chori istibdodini va endi besh yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini ko'radir” [12], - deb yozdi.

Shubhasiz, Abdulla Qodiriyning millatparvar, erkparvar ijodkor shaxs sifatida shakllanishida otasining ta'siri juda kuchli bo'lgan. Bu haqda: “Otam Rusiya chori hukumatini sira tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o'zi istiqloq (kutib olgan) etgan. Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do'st emas”.

Qodirmuhammad bobo: “...Xudoning xohlagani-da, kofirning qo'lida qolib ketdik... O'zimizda g'ayrat yo'q. Agar yurt bir og'izga tupurib, yarog' topolmag'anda ham qora kaltak (olomon urush) bo'lub chiqsa, isni-bisga qo'ymas edi. Qadimgi zamonning yigitlaridan shu kunda ham bo'lgandachi, ey-ha, o'rusingga yo'l bo'lsin” [13], - der edilar.

Taniqli faylasuf N. V. Goncharenkoning ta'kidlashicha, “geniylarni qulay iqlim yoki baxtli tasodif emas, balki jamiyat yaratadi. Biroq u geniylarni insoniyatga har doim va har qanday vaqtda bera olmaydi. Geniy jamiyat uchun kerak bo'lishi, unga tarixiy talab bo'lishi kerak” [14].

Abdulla Qodiriy XX asrning 10-yillaridan boshlab, jadidlarning gazeta va jurnallarida chop etilgan maqolalarni qunt bilan o'rgana boshladi. “Yosh Qodiriyda adabiyotga havasni uch najib zot – Tavallo, Komiy, Miskin uyg'otishgan, uning ilk mashqlarini ko'rishgan, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishgan va hatto matbuot dunyosiga olib kirishgan, Behbudiy, Munavvarqori hazratlari, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Avloniy va boshqa taniqli kishilar o'zlarining nashrlari bilan tanishtirishgan edi. U, ayniqsa, Behbudiyning maqolalariga oshufta bo'ldi. “Padarkush”ning hayajonlari ta'sirida bir hafta o'tirib, birinchi dramasi “Baxtsiz kuyov”ni yozdi” [15].

A.Qodiriy bolaligidayoq nihoyatda sinchkov, o'tkir zehni, kamgap, mulohazali, o'ychan va kuzatuvchan edi: mahalla-guzardagi eski maktab, rus-tuzem maktabida ham doimo tengdoshlari ichida peshqadam edi. Rus-tuzem maktabida rus tili grammatikasi, adabiyotidan dars bergan domlasi Pudovkindan ilk bor buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy, Anton Chexov, Nikolay Gogolning asarlari, badiiy mahoratlari haqidagi hikoyalarni maroq bilan tingladi. Ayniqsa, Pudovkinning Lev Tolstoy "Xojimurod" qissasini yozib tugatganidan so'ng yozgan "Tarixiy narsalar yozayotganimda, men eng mayda tafsilotlarigacha voqelikka sodiq bo'lishni sevaman", - so'zlari katta va unutilmas saboq bo'ldi. Habibulla Qodiriy otasi haqidagi xotiralarida oila davrasida A.Qodiriy Lev Tolstoy juda ko'p tushlariga kirganligini so'zlaganini qayd etgan edi.

Abdulla Qodiriy shaxsining eng noyob va qimmatli jihati – uning imon-e'tiqodda sobitligida, diniy va tasavvufiy ta'limotlarga bo'lgan sadoqatida edi. Qodiriy mehnatkashlar hukumatining dinsizlik, xudosisizlikka qarshi siyosati puch va asossiz ekanligini qalban his etgan, Ollohga bo'lgan imon va ibodatini tark etmagan, lekin ayni vaqtda dunyoviy ilm-fansiz qoloqlik va qashshoqlikdan, jaholat va mutaassiblikdan xalos bo'lish mumkin emasligini ham chuqur anglagan, bolsheviklar partiyasiga a'zo bo'lishni istamagan. Barcha romanlarining bosh qahramonlari imon-e'tiqodli, millatparvar va taraqqiyparvar shaxslar ekanligi ham bejiz emas edi. Qodiriy milliy ozodlik uchun kurashda tarixiy ongning naqadar muhim ekanligini anglashda misrlik mashhur yozuvchi J. Zaydonning ta'siri haqida: "Meni roman yozishga havaslantirgan Misr fuzalosidan ustoz Jo'rji Zaydondir" [16], - deb yozgan edi.

S. Mirvalievning ta'kidlashicha, J. Zaydon G'arbiy Yevropa adabiyotidan, V. Skott, V. Gyugo singari G'arb yozuvchilarining ijodidan oziqlangan. A. Qodiriy G'arb tarixiy romanchiligi sirlarini J. Zaydon orqali o'rgandi. Bundan tashqari, u R. Tagorning juda ko'p proza asarlarini bilgan va ularning ayrimlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. A. Qodiriyning arab va fors tillarini mukammal bilishi Sharq adabiyoti yutuqlarini o'zlashtirishida juda qo'l kelgan [17].

A.Qodiriy buyuk san'atkor-yozuvchigina emas, balki ijodkor-nazariyotchi ham edi. Adabiyotshunos Ibrohim Mirzayevga ko'ra, "A. Qodiriyning ...o'zbek hajvchiligining tarixiy taraqqiyotiga va nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalarini ilmiy sistemaga ega bo'lgan qarashlar deyish mumkin. Satirada ham, romanchilikda ham A. Qodiriyning amaliy faoliyati bilan nazariy qarashlari o'rtasida ajoyib bir uyg'unlik yuzaga keladi" [18].

Geniy shuning uchun geniyki, u o'zigacha bo'lgan ilmiy merosga yakun yasabgina qolmaydi, balki ularni chuqur umumlashtirish asosida yangi bilimlar beradi. Geniy boshqalar tomonidan qilingan ishlarni yakunlashi mumkin. Biroq, uning asosiy roli chegara bilmaydigan, tarixiy davrlarni bog'lovchi tayanch g'oyalarni yaratishdir. Geniy g'oyalar sistemasini bog'lovchi rishta bo'libgina qolmay, olg'a tomon rivojlanuvchi fikrning o'ziga xos bosqichini ifodalaydi [19].

A.Qodiriy jadidchilik g'oyalarini to'la qo'llab-quvvatlabgina qolmay, uni yangi mazmun va g'oya bilan boyitib, yuqori bosqichga ko'tardi. Agar jadidchilarning barcha buyuk namoyandalari avom xalqning hayotga, turmushga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish uchun xalq teatrlarini rivojlantirishga, jadid maktablari tashkil etishga, sarmoyador, milliy boy va savdogarlarni yangi maktablar qurishga da'vat etgan bo'lsalar, Abdulla Qodiriy jadid ijodkorlaridan farqli ravishda Misrlik mashhur adib va tarixchi Jo'rji Zaydon izidan borib, tarixiy romanlar yaratish va tarixning ma'nosi, mantig'ini, avvalo, jamiyatning taqdirini belgilaydigan ilm ahli, sarmoyador, mansabdorlarni tarix ijodkori sifatida haqqoniy va go'zal shaklda ko'rsatish orqaligina mamlakatni mustamlaka zulmi, qoloqlik, qashshoqlik va jaholatdan ozod qilish mumkin, degan g'oyani ilgari surdi.

A.Qodiriy Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li izidan borib, marksizmning sinfiy kurash g'oyasiga butunlay qarshi edi. Oila va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlarini tahlil qilishda Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilg'or falsafiy qarashlarini ijodiy rivojlantirdi. U marksizmga zid ravishda ijtimoiy taraqqiyotda elitar qatlamning yetakchi, belgilovchi rol o'ynashini e'tirof qilar ekan, Turkistonning mustamlaka zulmi ostida ezilishining bosh sababi hukmron elitar qatlamning oila va ijtimoiy birdamligi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan umumbashariy Muhabbat hissini shakllantirish, shaxs erkinligini himoya qilish orqaligina yagona Vatan – Turkiston ozodligi, uning porloq kelajagi uchun zamin yaratish mumkin, deb hisoblaydi.

Buyuk adib asarlarining bosh qahramonlari (mulkdorlar, olimlar, imon-e'tiqodli ziyolilar, siyosat ahli) avvalo, ayolga mehr-shafqatli, Vatan taqdiri uchun mas'ul kishilar sifatida tasvirlanishi zaminida ozodlik, mustaqillik va baxtli hayot barpo etish uchun shaxs erkinligi g'oyasini ilgari surilishi buyuk mo'jiza va noyob kashfiyot edi.

Hozirgi zamon Jahon falsafasi allaqachon muhabbat inson axloqiy kamolotining tayanchi va muhim mezon ekanligini e'tirof etgan. Jamiyat hamma zamonlarda ham ahli xos va ommaga bo'lingan. Ilmsiz, savodsiz avomning muhabbat haqidagi tushuncha va tasavvuri o'zi singari nochor, qashshoq va ojizdir. Xos ahli Ollohga bo'lgan muhabbat, sof va samimiy insoniy muhabbatgina insonni buyuk yaratuvchan faoliyatida qudratli stimul ekanligini teran anglaganlar. So'fiylarning Ollohni eng go'zal Yor, eng sadoqatli va vafodor Do'st sifatida tasavvur etishlari aslo bejiz emasdir.

Bola shaxsi, o'smir shaxsi shakllansagina unda go'zallik, ezgulik va haqiqat to'g'risidagi orzu va idealga erishish istagi paydo bo'ladi. Muhabbat pokiza qalblariga o'ziga makon qiladi. Real ijtimoiy hayotda shaxslar juda kam bo'lgani singari haqiqiy, pok va samimiy muhabbat ham juda oz kishilarga nasib etadi. Biroq ana shu ozchilikni tashkil etuvchi elitar qatlam vakillarining muhabbati hamisha baxtsiz yakun topadi. O'zing sevgan, hayoting, butun borlig'ingning ma'nosiga aylangan Ma'shuqa vasliga yetisha olmaslik barcha buyuk daholarning qismatidir. Biroq baxtsiz muhabbat shaxsni harakatga, favqulodda faollikka undar ekan, nom-nishonsiz yo'qlikka maxkum bo'lmaydi, balki bu muhabbat sevimli Yor mansub bo'lgan xalqqa, Vatanga va butun insoniyatga ko'chadi. Barcha buyuk shaxslar, geniylar, avliyolar, payg'ambarlar muhabbat ahllaridir. Xos ahli e'tirof etadigan, qadrlaydigan chin ilohiy va ramziy insoniy muhabbat oshiqning qalbida olijanob va yuksak axloqiy fazilat va noyob qobiliyatlarni har jihatdan tarbiyalab, kamol toptiradi. Hazrat Navoiyning: "Ishq bo'lmasa, ikki jahon bo'lmasun, Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun", deyishi aslo bejiz emas. Aslida muhabbatning sehri, kuch-qudratini, uning quvonch va iztiroblarini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi. Abdulla Qodiriyning o'zi ana shunday muhabbat o'tida toblangan, so'fiylar ta'biri bilan aytganda, muhabbat olovida erib, oltinga aylangan buyuk shaxs edi. Otabek va Kumushning muhabbati naqadar sirli va ilohiy ekanligi bilan kitobxonda havas va hayrat hissini uyg'otadi. A. Qodiriy nazarida muhabbat ahlining go'zal ahloqiy madaniyatigina turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatlarni oqilona hal etishga imkon beradi. Ana shu muhabbatgina yurtga, Vatanga ko'chadi. Muhabbatning ziddi nafrat, milliy begonalashuv, parokandalik, zulm va jaholatdir.

Abdulla Qodiriy buyuk donishmand edi. Lev Tolstoyning ta'lim berishicha, donishmand kishilarda uch xislat yarq etib ko'zga tashlanadi: birinchisi, boshqalarga bergan maslahatlariga, avvalo, o'zlari amal qiladilar; ikkinchisi, atrofidagi odamlarning kamchilik va nuqsonlariga sabr-toqatli bo'ladilar, o'shalarga o'xshamaslikka intiladilar; uchinchisi, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar [20].

Buyuk shaxslar o'z vatandoshlari, zamondoshlaridan ancha o'zib ketadilar. Ehtimol, shu boisdan ham ular o'z zamondoshlari tomonidan turli malomatlariga giriftor bo'ladilar. Xudoning yo'liga kirgan so'fiy (darvish)lar bunday hollarda odamlarni, jamiyatni vaqtincha tark etib, uzlatga (dashtu biyobonlar, sahrolar, tog'u toshlarga) chiqib ketadilar. So'ng ular ma'lum vaqtdan keyin uni inkor etgan yurtdoshlari bag'riga avliyo, geniy sifati bilan qaytadilar. Keyingi yuz yil ichida O'zbekistonda shakllangan va har doim hukmron mafkura tomonida turib, buyuk adibga ta'nayu malomatlar qilgan o'zbek adabiyotshunoslari, tarixchilari, faylasuflarining Abdulla Qodiriyning tanishlari, tushunishlari va uning geniy ekanligini anglashlari uchun rosa yuz yil zarur bo'ldi.

Yangi O'zbekiston, nihoyat, olamga, ijtimoiy hayotga, buyuk ajdodlarimiz shaxsi va merosiga yangicha nigoh, samimiyat va pok muhabbat bilan qaray boshladi: milliy o'zlikni anglash shaxs erkinligi, zulm va jaholatdan ozod bo'lishning mohiyatini bilishdan boshlanishini e'tirof eta boshladi.

Abdulla Qodiriy shaxsi noyob, betakror va beqiyos edi. Uni yaqindan bilgan buyuk ijodkor Oybekning yozishicha, "Abdulla Qodiriy... sirtidan qaraganda bosiq, kamgap ko'rinar, chunki har bir so'zni taroziga solib ko'rar, og'ziga kelgan har bir so'zni ayta bermas, sekin va gapi xuddi o'ziga xalal berayotganday yoqinqiramay gap boshlardi. U aqliy mehnat kishilariga har mahal ham nasib bo'lavermaydigan darajada jismoniy mehnatga o'ch kishi edi. Qodiriyning mehnatga o'chligi – dehqondan chiqqanligida bo'lsa kerak. O'zi ham xuddi dehqonlarday tinim bilmasdan qattiq mehnat qilar edi" [21].

Abdulla Qodiriy hech qachon amaldor, mansabdor bo'lishga intilmagan. Habibulla Qodiriyning yozishicha, buvisi Josiyat bibi o'g'li Abdullaning Yo'ldosh Oxunboboev, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaevlar bilan yaqin ekanligini nazarda tutib, nega ularni ham boshqa mashhur kishilar (olimlar, yozuvchilar) qatori boqqa mehmonga taklif qilmasligi sababini so'raganida, u shunday degan: "Ular menga o'rtoq emaslar-da, oyi. O'rtoqlar chaqirilmasa ham o'zlari kelaverishadi.

ILMIY AXBOROT

Kattalarni maxsus chaqirishdan maqsad bo'lishi kerak: biron mushkulni oson qilish, obro' orttirish, martaba ta'ma etish... Meni kattalar bitqazib beradigan mushkul ishim yo'q: obro', martabaga ham muhtoj emasman" [22].

Abdulla Qodiriy kambag'alparvar, do'stlariga sadoqatli, mehr-oqibatli, saxiy va muruvvatli ziyoli edi. Habibulla Qodiriy 1933 yilda butun mamlakatda hukm surgan ocharchilik va qimmatchilik yillari va otasining olijanob insoniy fazilatlarini haqida shunday deb yozgan edi: "Bog'imiz, dehqonchiligimiz, sigir-buzog'imiz borligi uchun biz bir muncha durust yashar edik. Buning ustiga, shu 1933 yilda taqsimot do'koniga yozuvchi, professor, san'atkor, injener kabi mutaxassislar uchun ochilgan maxsus do'konga a'zo qilingan edik. Dadam esa ko'pincha "Obid ketmon" qissasini yozish, lug'at tuzish va bog' ishlari bilan band edilar. Ba'zan men bilan qop orqalab, "Chuqur qishloq"dagi o'rtog'i Mahmud Sariqning tegirmonida jo'xori tortib chiqar edilar. Oyim bechora ertadan kechgacha taom tayyorlar, jo'xori unidan hamir qorib, ichiga qovoq qo'shib, tandirda zog'ora non yopar, kuniga 1-2 marta taom pishirib, mahallamizdagi ochlarga berar edilar. Dadam Rashid aka degan kekka kishini Qudratilla ismli o'g'li bilan ko'chadan yetaklab kelib: "Bu kishi eski tanishim, bechora qiynalib qolibdi, yaxshi kunlar kelguncha bizda yashab tursinlar deb, shiyponimizdan joy qilib berdilar. Yetti jonli bir qo'shnimiz ochlikdan yoppasiga shabko'r bo'lib, uydan chiqolmay qolgan edilar, yana Rahimberdi amakimning ahvoli ham yomon edi. Onam har kuni ovqat pishirib, ularni boqqan edilar. Dadamning o'zlari ham ozib-to'zib ketgan edilar" [23].

Abdulla Qodiriyning jahon romanchiligida tutgan o'rni va roliga xolis bahoni mashhur rus sharqshunosi Ye. E. Bertels berdi: "Jahon adabiyotida uslub jihatdan farqlanadigan beshta romanchilik maktabi ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, frantsuz, nemis, rus, hind romanchilik maktabidir. Endilikda oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiriy (Julqunboy) bo'ldi" [24].

Faqat geniylargina o'zi mansub bo'lgan va butun ongli hayoti, mehr-muhabbatini bag'ishlagan, opichlab voyaga yetkazgan xalqni jahonga tanita oladi. Abdulla Qodiriy ana shunday buyuk daho edi.

E.G.Araslining yozishicha, arab tarixchisi va adibi J. Zaydon arab tilida Qohirada chop etilgan besh jildlik "Musulmon madaniyati tarixi" asariga yozgan so'zboshisida nima sababdan tarixiy romanlar yozishga alohida e'tibor berayotganligining sabablarini quyidagicha izohlagan: "Fan hali o'zining bolalik davrida qolib ketayotgan bizning mamlakatimizda (Misrda) sof tarixning o'zini o'qitish keng kitobxonlar ommasi uchun qiyindir. Shu sababli biz kishilarni kitob o'qishga jalb etish uchun shunday uslublarni qo'llashga majburmiz. Roman janri bu maqsadni amalga oshirishda eng yaxshi vositadir"[25]. Bizningcha, ana shu g'oya Abdulla Qodiriy tarixiy romanlar yaratishga undagan. Buyuk italyan mutafakkiri A. Pechchei ta'biri bilan aytganda, "g'oya harakatga keltirgan shaxsni hech narsa to'xtata olmaydi" [26].

Biroq Abdulla Qodiriy tarixiy roman yaratishda Turkistonning butun tarixini emas, balki "mavzuni... yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari"... ning xijriy 1264 (1848 milodiy) yildan hijriy 1277 (milodiy 1861 y.) yilgacha bo'lgan o'n uch yillik tarixini haqqoniy yaratish jarayonida o'z niyatini amalga oshirdi: o'rta asrchilikning chirkin odatlari sof va samimiy muhabbatga, shaxs erkinligiga, ijtimoiy taraqqiyotga qarshi ekanligini yaqqol va ishonarli qilib ko'rsatdi. Bu bilan buyuk adib faqat shaxsgina go'zallik, ezgulik va haqiqat uchun kurashga qodir ekanligini, zararli odatlarning butun fojiasini his etmay va unga qarshi ilm-ma'rifat bilan kurashmay turib, Vatan ozodligi va mustaqilligiga erishib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surdi.

XULOSA

Abdulla Qodiriy butun ongli hayoti, aql-zakovati va noyob iste'dodi bilan XX asr boshlarida ro'y bergan buyuk inqilobiy o'zgarishlar jarayoniga qo'shildi. Geniyarga xos o'tkir zehn, botiniy qalb bilan Turkistonning mustaqillik va ozodlik yo'li shaxs erkinligida, dunyoviy ilm-fan ravnaqi va muqaddas diniy qadriyatlarni keng targ'ib qilishda, Vatan uchun, xalq uchun sidqidildan xizmat qilishda, milliy o'zlikni anglashda ekanligini chuqur angladi. "Geniy shuning uchun geniyki, u o'zigacha bo'lgan ilmiy merosga yakun yasabgina qolmaydi, balki ularni chuqur umumlashtirish asosida yangi bilimlar beradi. ...Geniy g'oyalar sistemasini bog'lovchi rishta bo'libgina qolmay, olg'a tomon rivojlanuvchi fikrning o'ziga xos bosqichini ifodalaydi"[27]. Abdulla Qodiriyning Markaziy Osiyo xalqlarining badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojiga ko'rsatgan ta'sirini hazrat Alisher Navoiyning geniysi bilan qiyoslanishi to'g'ri, adolatli va haqqoniydir.

Abdulla Qodiriy shaxsi, faoliyati va boy merosini falsafiy tadqiq etish orqaligina buyuk geniyning ilg'or ijtimoiy-falsafiy, diniy-tasavvufiy va badiiy-estetik g'oyalari milliy g'oya va mafkura asoslarini yaratish, milliy o'zligimizni anglash va milliy taraqqiyotimizda muhim manba ekanligini to'laroq anglash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. B. Karimov. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022, 3-b. (B. Karimov. Jadids. Abdullah Kadiri. - T.: Youth Publishing House, 2022, 3-p.)
2. M. Qo'shjonov. Armon (xotiralar). – T.: Sharq, 164-b. (M. Koshjanov. Armon (memories). - t.: Sharq, 164-p.)
3. M. Qo'shjonov. Qodiriy erksizlik qurboni. T.: Fan, 1992. 56-b. (M. Koshjanov. Kadyri is a victim of impurity. T.: Science, 1992. 56-p.)
4. R.K. Balandin. Vernadskiy: jizn, misl, bessmertie. – Moskva, 1988. S.48. (R.K. Balandin. Vernadskiy: Life. Thought. Immortality. - Moscow, 1988. P.48)
5. U. Normatov. Qodiriy mo'jizasi. (Mas'ul muharrir B. Karimov) – T.: O'zbekiston, 2010, 195-b. (U. Normatov. Kadyri Miracle. (Respective Editor B. Karimov) - T. Uzbekistan, 2010, 195-p.)
6. G.V.F. Gegel. Estetika. V 4-x tomax. Tom 1, str. 294. (G.V.F. Gegel. Aesthetics. In 4 volumes. I. Page 294.)
7. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. M. 1994. Str. 295. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.295.)
8. O'sha manba. Str. 410. (That source. Str. 410)
9. O'sha manba. Str. 217. (That source. Str. 217)
10. Ibrohim G'afurov. Qodiriy siymosi. // Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. I. – T.: Info Capital Group. 2017. 5-bet. (Ibrahim Gafurov. The image of Kadyri. // Abdulla Kadiri. Days spent. I. - T.: Info Capital Group. 2017. Page 5)
11. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 33-bet. (Abdullah Qadiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 33.)
12. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. III. – T.: 2017. 125-bet. (Abdullah Qadiri. The old is a lot of Bakr. III. - T.: 2017. Page 125.)
13. O'sha manba. 125, 127-betlar. (That source. 125, 127 Page)
14. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. – M.: Iskusstvo, 1991, str-202. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.202.)
15. Ibrohim G'afurov. Qodiriy siymosi. (So'z boshi). // Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. I. – T.: 2017. 9-bet. (Ibrahim Gafurov. The image of Kadyri. (The beginning of the word). // Abdulla Qadiri. Days spent. I. - T.: 2017. Page 9.)
16. S. Mirvaliyev. O'zbek romani. Janr manbalari va uning tashkil topishi. – T.: Fan, 1969. 102 – bet. (S. Mirvaliyev. Uzbek novel. GenR sources and its formation. - T.: Science, 1969. 102 – Page)
17. O'sha manba. 103-104 – betlar. (That source. 103-104 - pages.)
18. I. Mirzayev. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. – T.: Fan, 1977. 143-bet. (Mirzayev. Abdulla Qadiri's creative evolution is the creative evolution. - T.: Science, 1977. page 143.)
19. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. – M.: Iskusstvo, 1991, str-207. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.207.)
20. L.N. Tolstoy. Krug chteniya. V 2-x tomax. – M.: 1908 r. (L. N. Tolstoy. Reading circle. In 2 volumes. - M.: 1908)
21. Oybek. Asarlar. O'n tomlik. 9-t. – T.: Fan. 1974. 341-bet. (Oybek. Works. Ten roofs. 9-t. - T.: Science. 1974. page 341.)
22. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 218-bet. (Abdullah Qodiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 218.)
23. Abdulla Qodiriy. Adibni xotirlab. V. – T.: 2017. 235-bet. (Abdullah Qodiri. Remember the writer. V. - T.: 2017. Page 235.)
24. Guliston jurnali. 1974. 4-son. 19-bet. (Gulistan magazine. 1974. No. 4. Page 19.)
25. E. G. Arasli. Djurdji Zeydan i arabskiy istoricheskiy roman. M.: 1967. Str. 47 (E.G. Arasli. Jurdji Zeidan and Arab historical novel. M.: 1967. P. 47.)
26. A. Pechchei. Chelovecheskiye kachestva. 1980. Str.282. (A. Pechchei. Human qualities. 1980. P.282.)
27. N.V. Goncharenko. Geniy v iskusstve i nauke. M., "Is kusstvo", 1991. C.208. (N.V. Goncharenko. Genius in art and science. M., "Art", 1991. P.208.)